

**Osmon Card kredit kartasi bo'yicha
TARIF**

<p>1. Foiz stavkasi quyidagilar uchun:</p> <p>1.1. Foizsiz (Imtiyozli) davr mobaynidagi xaridlar</p> <p>1.2. Xaridlar</p> <p>1.3. Naqd pul yechib olish</p> <p>Xaridlar va naqd pul yechib olish uchun foiz stavkalari skoring natijalariga ko'ra individual tarzda belgilanadi va Shartnomada ko'rsatiladi.</p>	<p>Yillik 0%</p> <p>Yillik 0% dan 50% gacha</p> <p>Yillik 0% dan 50% gacha</p>
<p>2. Kartaga xizmat ko'rsatish uchun to'lov</p> <p>2.1. kartani chiqarish va yetkazib berish</p> <p>2.2. oylik kartaga xizmat ko'rsatish</p> <p>2.3. kartani qayta chiqarish:</p> <p>2.3.1. yangi amal qilish muddatiga yoki Bank tashabbusi bilan</p> <p>2.3.2. mijoz tashabbusi bo'yicha</p>	<p>Bepul</p> <p>Bepul</p> <p>Bepul</p> <p>50 000 so'm</p>
<p>3. Barcha bankomatlarda naqd pul yechib olish uchun komissiya</p> <p>Naqd pul yechib olish miqdoriga qarab undiriladi va bu ikki summadan qaysi biri ko'proq bo'lishiga qarab 3% yoki 90 000 so'mni tashkil etadi. Bankomat egasi tomonidan qo'shimcha komissiya olinishi mumkin va komissiya bankomat ekranida naqd pul yechib olish vaqtida ko'rsatiladi.</p>	<p>3%, minimum 90 000 so'm</p>
<p>4. Minimal to'lov</p> <p>Bank tomonidan yakka tartibda hisoblab chiqiladi va ko'chirmada ko'rsatiladi. Agar oldingi davrlar uchun to'lanmagan minimal to'lovlar mavjud bo'lsa, ular yangi minimal to'lovga kiritiladi. Minimal to'lovni hisoblash uchun aniq stavka (asosiy qarzdand foiz) Shartnomada alohida belgilanadi.</p>	<p>Asosiy qarzdand 8% dan ko'p emas + hisoblangan foizlar</p>
<p>5. Minimal to'lov kechiktirilgan taqdirda to'lov:</p> <p>5.1. 2-kundan boshlab muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha oshirilgan foiz</p> <p>5.2. birinchi kun uchun muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha oshirilgan foiz</p> <p>Qarzni to'lash sanasida Minimal to'lov to'lanmagan taqdirda, oshirilgan foiz Ko'chirma sanasidan boshlab har kuni muddati o'tgan asosiy qarz summasiga qo'shiladi.</p>	<p>Kuniga 0,35%</p> <p>Muddati o'tgan asosiy qarz summasidan 8,75%</p>
<p>6. Kartani to'ldirish</p> <p>6.1. TBC UZ mobil ilovasida boshqa kartalardan</p> <p>6.2. boshqa usullar va hamkorlar orqali</p>	<p>Bepul</p> <p>Hamkor komissiyasi</p>

Qo'shimcha shartlar:

1. Kredit karta to'lov tizimi – Humo. Karta amal qilish muddati - 5 yil. Kartadan O'zbekiston Respublikasidagi Humo kartalarini qabul qiluvchi POS-terminallar va bankomatlarda hamda TBC Gruzuya bankining POS-terminallari va bankomatlari tarmog'ida foydalanish mumkin.
2. Foizsiz davr - Hisobot davri boshlangan kundan boshlab qarzni to'lash sanasigacha bo'lgan davr. Foizsiz davrning davomiyligi - 55 kalendar kungacha. Batafsil Shartnomada belgilangan.
3. Kreditlash limitidan istalgan nisbatda xaridlar va naqd pul yechib olish uchun foydalanish mumkin.
4. Kredit karta bo'yicha shartnoma, Bosh Shartlar, ushbu Tarif va kredit karta bo'yicha boshqa hujjatlar Bank veb-saytida quyidagi havolada joylashtirilgan: <https://tbcbank.uz/ru/documents>.
5. Shartnomaga muvofiq POS-operatsiyalar (Xaridlar): jismoniy POS yoki virtual ePOS terminallari orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar, mobil ilovalar orqali tovarlar va/yoki xizmatlar uchun to'lovlar.
6. Shartnomaga muvofiq Cash-operatsiyalar (Naqd pullarni yechib olish): bankomatlar yoki terminallar orqali naqd pullarni yechib olish bo'yicha operatsiyalar, bankomatlarda naqd pullarni yechib olish uchun komissiya, mobil ilovalar orqali karta rekvizitlari yoki telefon raqamidan foydalangan holda kartadan kartaga o'tkazmalar va boshqa usullar, bank kassalari va bankomatlarda to'lovlar, valyutalarni konvertatsiya qilish, depozitlarni to'ldirish va kreditlarni qaytarish hamda Xaridlarga taalluqli bo'lmagan boshqa operatsiyalar.
7. Bank terminal egasi tomonidan noto'g'ri ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda naqd pul yechib olish sifatida noto'g'ri tasniflangan operatsiyalar uchun javobgar bo'lmaydi. Bank operatsiyalarning tasnifini va Cash-operatsiyalarini belgilash qoidalarini oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirish huquqiga ega.